

## VII. ISTE'MOL BOZORI


**Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.**

2025- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 13 097 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 65 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 032 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-mart oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 4 831,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 106,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 507,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4 324,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 577,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,5 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)**  
(2025 yil yanvar–mart )



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi**  
*2025 yil yanvar-mart, foiz hisobida*




**ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 197 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 503,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 236,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 49,7 % ni tashkil qildi.

**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qorovulbozor (484,0 m.), G'ijduvon (2,1 m.), Kogon (168,1 %), Vobkent (165,2 %), Peshku (151,5 %) tumanlarida va Buxoro shahar (163,1 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘atlari (foizda)**




**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI**

2025- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 295,5 mlrd so‘mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o‘shish sur‘atlari, foizda**



**Chakana savdo** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

**Chakana tovar aylanmasi** – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

**Umumiy ovqatlanish** – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

**Umumovqatlanish aylanmasi** – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

**Tovar zaxiralari** – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

**Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi** – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

**Ulgurji savdo** – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

**Iste'mol tovarlari** – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

**Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar** – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.